



PAPER

JADIDLAR DAVRIDA TUZILGAN JAMIYATLAR FAOLIYATI

Hazratqulov Ozodbek^{1,*}

¹Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

* hazratqulov@gmail.com

Abstract

Jadidlar davrida tashkil etilgan jamiyatlar Turkistonning ijtimoiy, ma'rifiy va madaniy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu jamiyatlar asosan xalqni savodli qilish, eski usuldagi ta'lim tizimini isloh etish va yangi usuldagi maktablarni joriy qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydilar. Ular ilm-fan, madaniyat va zamonaviy bilimlarni targ'ib etish orqali jamiyatni taraqqiyot yo'liga olib chiqishga intildilar. Jadid jamiyatlar nafaqat ta'lim sohasida, balki matbuot, teatr va adabiyot rivojida ham faol ishtirok etdilar. Gazeta va jurnallar chiqarish, sahna asarlarini namoyish etish orqali xalq ongiga milliy uyg'onish, erkin fikrlash va yangilanish g'oyalarini singdirdilar. Shu bilan birga, ular jamiyatda ijtimoiy adolat, milliy birlik va mustaqillik tushunchalarini shakllantirishga xizmat qildilar. Natijada, jadid jamiyatlar Turkistonni zamonaviy taraqqiyot sari yetaklovchi muhim kuchlardan biriga aylandi.

Key words: Umummilliy g'oya, "dorul-ojizin", "taraqqiyot", "jamiyati imdodiya", Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Ta'asisoti xayriya.

Kirish

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev jadidlar faoliyati haqida "jadidlar merosini qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda bizni qiynayotgan ko'plab savollarga tog'ri javob topamiz. Bu bebaho boylik qanchalik faol targ'ib qilinsa, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayot qadrini shunchalik chuqur anglaydi." Haqiqatdan ham, tarixni o'rganishda va uni tahlil qilishda

jadidlar davri hamda ularning olib borgan faoliyati bugunni kun uchun nihoyatta muhim bo'lgan. Chunki, ular o'z mamlakatini ilg'or davlatlar qatorida ko'rishi uchun harakat qildilar va yoshlarga bilim berib ularda milliy mustaqillik g'oyalarini targ'ib qildilar shuningdek, yoshlarni chet elga o'qitish uchun, hamda mustaqillik uchun kurashda tashkil etilayotgan tashkilotni moliyalashtirish uchun jamiyatlar tuzdilar.

Shuningdek, Birinchi Prezidentimiz Islom

Compiled on: April 14, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Humanities for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Karimov ta'бири bilan aytganda “ o'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunni unutgan millatning kelajagi yuq” degan so'zlari tarixni o'rganishda ko'plab chuqur ma'noga ega ekanligini bilishimiz mumkin. Hozirgi kun uchun, jadidlar faoliyati o'rganish hamda ular tamonidan tuzilgan jamiyatlarni taxlil qilish juda muhimdir . Chunki, ularning g'oya va dasturlari Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tamonlama uyg'un va hamohangdir. Shuning uchun ham ular tashkil qilgan jamiyatlar jadidlar g'oyalarini amaliy ro'yobga chiqarish uchun muhim omil hisoblangan. Shu tariqa, jadidlar tomonidan tashkil etilgan jamiyatlar o'z davrining eng ilg'or g'oyalarini ilgari surib, Turkiston jamiyatini yangilanish va taraqqiyot sari yetaklashda muhim o'rin egalladi.

Jadidlar tamonidan tuzilgan tashkilotlar turkistonning barcha hududlarida tuzildi ammo ular tuzgan jamiyatlar o'z oldiga turli xil maqsadlar amalga oshirish uchun tashkillashtirildi. Jadidlar tamonidan tuzilgan jamiyatlar asosan, Samarqand, Xorazm, Buxoro, Farg'onada keng miqyosda amalga oshirildi. Dastavval jadidlar o'z g'oyalarini targ'ib qilishda eng muhim vosita bo'lgan xayriya jamiyatlarini tuzishga kirishadi. Turkistonda musulmon xayriya jamiyatlarining tarixi XIX asrning so'ngidan boshlanadi. Samarqand shahar qozisi Nizomiddinxo'ja tashabbusi bilan 1894-yili 1500 so'm mablag' jamlanib, mahalliy aholi uchun “Dorul-ojizin” ta'sis qilindi. Oradan ikki yil o'tib, 1896-yili Farg'ona viloyati O'sh shahrida mahalliy musulmonlar tomonidan birinchi “Dorul-ojizin” tashkil etildi. Ushbu “Dorul-ojizin”ning moliyaviy ta'minotini shahar savdogarlari o'z zimmlariga olishgan. Yuqoridagi ma'lumotlar Turkiston general-gubernatorligida mahalliy xalq tashkil etgan zamonaviy xayriya muassasalari to'g'risidagi ilk gazeta xabarlarini bo'lib, bu “Dorul-ojizin”larning asosiy vazifasi shahar aholisining yordamga muhtoj qatlamini issiq ovqat va boshpana bilan ta'minlashdan iborat edi.

1897-yili amir Abdulahadxon ham Buxoro shahrida kam ta'minlangan va nogironlarga mo'ljallangan “Dorul-ojizin” ta'sis etdi. Bu xayriya muassasasida muhtojlarga ikki mahal issiq ovqat amir hisobidan berilar edi. Ayni shu vaqtdan e'tiboran Turkistonda mahalliy xalqlarning

zamonaviy musulmon xayriya tizimida yangi davr boshlandi. Turkistonda keng qamrovli zamonaviy xayriya jamiyati ta'sis qilish masalasi birinchi bor 1906-yili “Taraqqiy” gazetasida kun tartibiga qo'yildi. Ana shunday keng qamrovli musulmon xayriya jamiyati oradan 3 yil o'tib, 1909-yili 15-iyul (ayrim ma'lumotlarda 10-avgust) kuni Toshkentda -“Jamiyati imdodiya” nomi ostida joriy qilindi. Ushbu muassasa ta'sischi boshida Toshkent jadidlarining yetakchisi Munavvar qori Abdurashidxonov turdi.

“Jamiyati imdodiya”ning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan. Mahalliy xalqning barcha qatlamlari ta'lim olishi uchun turli yo'nalishdagi maktablar tashkil etish; yo'qsil bolalar va yetimlarga g'amxo'rlik qilish; turli boshpanalar bunyod etish; musulmon talabalariga moddiy yordam ko'rsatish Albatta, har qanday xayriya ishini amalga oshirish uchun mablag', dastak lozim. Shu ma'noda Behbudiy matbuot sahifalarida e'lon qilgan o'nlab maqolalarida savdo va ishlab chiqarish vakillarini boshlangan xayriya ishlarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga da'vat qiladi. U shunday maqolalaridan birida “...Turli davrlarda taraqqiyot va islohotlarni sarmoya va uning vakillari dastaklab kelgan. Millatga dalda berish, maktablar islohi, yoshlarimizni Yevropa oliy o'quv yurtlariga kirishlariga tayyorlash, umummilliy ishlarni amalga oshirish uchun bizga “Xayriya jamiyatlari”, kutubxonalar, jamg'armalar, turli to'garaklar, gazetalar, jurnallar, nashriyotlar va hokazolar kerak. Millatning taraqqiyoti mana shu yo'l bilan amalga oshiriladi va bu ishlar uchun mablag' zarur.

Mablag' esa bizning boylarimiz qo'lida”, deb yozdi va ularni millatni “uyg'otish”ga qaratilgan ushbu xayrli ishlarni qo'llashga chaqirdi. “Jamiyati imdodiya”ning faoliyati juda og'ir kechdi. Jamiyat daromadining asosini a'zolik badali tashkil qilgani uchun ham u ta'sis etilganidan boshlab bir yarim yil davomida yangi a'zolar jalb qilish va keyingi faoliyatini yurgizish uchun mablag' yig'ishdan boshqa hech qanday faoliyat olib bormadi. Turkistonlik jadidlar Ichki Rossiya musulmonlari amalga oshirgandek sadaqa va zakotni xayriya jamiyati foydasiga jalb qilishga muvaffaq bo'la olmadilar. Shaharning katta boy va savdogarlari

jamoat ishlariga bosh qo‘shmadi va bunday xayriya ishlariga mablag‘ sarf qilishdan o‘zlarini chetga tortdilar.

Behbudiy Turkiston ziyoli qatlamining bu tariqa ish tutganini “...har kim o‘z foydasi va shaxsiy ishi bilan band. Bizda umummilliy yoki diniy va milliy ishlar foydasiga harakat qiladigan odamlar yo‘q. Bizda, boshqa millatlarda bo‘lganidek, millatning taraqqiyoti uchun jon kuydiradigan kishilar yo‘q”, deb tushuntirishga harakat qildi.

Turkiston jadidlari milliy g‘oyaning samarali targ‘iboti uchun 1914-yildan boshlab turli nashriyot, shirkat va kutubxonalar tashkil qila boshladilar. Bunday muassasalarning asosiy maqsadi milliy g‘oya targ‘iboti va siyosiy irodaning mustahkamlanishiga xizmat qiladigan gazeta, jurnal va kitoblarni nashr qilish va aholi orasida tarqatishdan iborat edi. Bunda asosiy e‘tibor o‘rta avlod musulmonlar auditoriyasiga qaratildi. Ana shunday tashkil etilgan muassasalar qatoriga Qo‘qondagi “G‘ayrat” kutubxonasini, Toshkentdagi “Nashriyot” shirkatini, Buxorodagi “Ma‘rifat” kutubxonasi va “Barakat” kooperativini misol qilish mumkin. Bu davrda talabalarni chetga yuborish uchun ham jamiyatlar tuzildi. Bu jamiyat yoshlarni chetga yuborish va ularni shu orqali marifatli qilish uchun harakat qildilar. Shu maqsadda 1909-yilda Toshkentda tuzilgan Turkiston jadidlarining “Jamiyati xayriya” tashkiloti tomonidan talabalarni xorijga o‘qishga jo‘natish harakati boshlanadi.

O‘sha yili Buxoro shahrida tuzilgan “Tarbiyai atfol” jamiyati ham Fitrat, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, Ato Xo‘ja, Mazhar Burxonov kabi ko‘pgina yoshlarni Istanbulga o‘qishga yuborgan. 1922-yilga kelib Fitrat, Botu va Cho‘lponning g‘oyaviy boshchiligida talabalarining oliy ta‘lim olishiga sharoit yaratish, ular chet ellarda duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni yengillatish maqsadida “Ko‘mak” uyushmasi tashkil qilinadi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Germaniyaga o‘qishga jo‘natilgan mahalliy yoshlar uchun Buxoro hukumati tomonidan 125 ming dollar pul, Yevropada qiymati baland hisoblangan noyob qorako‘l terilari yuboriladi va bular talabalarining 1924-yilgacha bemalol o‘qishi uchun kifoya qilgan. Shuningdek, ular Berlinda V. Geysbergstrit ko‘chasidagi 39-uyini ham sotib olib, turkistonlik

talabalar uyiga – yotoqxonaga aylantirishadi. Ushbu uyushma bir yilgina faoliyat yuritgan bo‘lsada, 200 nafardan ortiq yoshlarni xorijiy mamlakatlarga o‘qishga yuborishga muvaffaq bo‘ladi. O‘sha taloto‘p zamonlarda, ocharchilik va yo‘qchilik hukm surgan davrda yuzlab millat yoshlarini xorijga o‘qishga yuborish va ularga homiylik qilish nafaqat muvaffaqiyat, balki ulkan jasorat edi. Afsuski, Vatanga xizmat qilish orzusida bu tashkilotni tuzgan millat oydinlari hamda el-yurt umidi bo‘lgan tolibi ilmlarning aksariyati keyinchalik qatag‘onga uchragan.

Xulosa

Jadidlar davrida tuzilgan jamiyatlar faoliyati Turkiston va Xorazm hududida ijtimoiy, madaniy hamda siyosiy hayotning yangilanishida muhim o‘rin tutgan. Bu jamiyatlar, avvalo, xalqni jaholatdan chiqarish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng yoyish va milliy ongni uyg‘otishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan edi. Ular tomonidan ochilgan yangi usul maktablari, kutubxonalar, teatr truppalari hamda xayriya tashkilotlari jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildi. Jadid jamiyatlari faoliyatining eng muhim jihati shundaki, ular ta‘lim tizimini isloh qilish orqali yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirishga intildi. Natijada, eski maktab va madrasalardan farqli ravishda dunyoviy fanlar o‘qitila boshlandi, bu esa jamiyatda yangicha fikrlovchi ziyolilar qatlamining shakllanishiga olib keldi.

Shu bilan birga, xayriya jamiyatlari orqali ijtimoiy yordam tizimi rivojlantirilib, ehtiyojmand qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yildi. Bundan tashqari, jadidlar tuzgan jamiyatlar milliy matbuot va madaniyat rivojiga ham katta hissa qo‘shdi. Gazeta va jurnallar orqali xalq orasida ma‘rifat g‘oyalari targ‘ib qilindi, teatr va adabiyot orqali esa ijtimoiy muammolar ko‘tarilib, ularning yechimlari muhokama etildi. Bu jarayonlar milliy o‘zlikni anglash va mustaqillik g‘oyalarining shakllanishiga zamin yaratdi.

References

1. Karimov. I. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
2. A‘zamxo‘jayev. S. Turkiston Muxtoriyati:

- milliy-demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi. – Toshkent, 2000.
3. Nomozova. K. Jadidchilik: muammolar, islohot va qarashlar. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2010.
 4. Rajabov.Q. Haydarov. M. Turkiston tarixi (1917–1924 yillar). – Toshkent: Universitet, 2002.
 5. Rajabov. Q. Mustaqil Turkiston fikri uchun mujohadalalar (1917–1935). – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
 6. Jo‘rayev. N. O‘zbekiston tarixi (Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida). 1-kitob. – Toshkent: Sharq, 2011. – 409 bet.
 7. Turkiston matbuoti tarixi (1870–1917). – Toshkent: Akademiya, 2000.